

**Ta'limda talabalarning sohaviy terminlarni nutqda samarali qo'llash  
ko'nikma-malakalarini rivojlantirish**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*Ijtimoiy va aniq fanlar kafedarsi  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori  
PhD, dotsent*

**N.S.Igamnazarov**

*Moliya va moliyaviy texnologiyalar  
yo'nalishi 11-guruh talabasi*

**Q.Shodiyev**

---

**ARTICLE INFO**

**ARTICLE HISTORY:**

*Received: 10.04.2025*

*Revised: 11.04.2025*

*Accepted: 13.04.2025*

**KEYWORDS:**

*sohaviy termin,  
nofaol leksika, rasmiy-  
idoraviy uslub, ilmiy –  
metodik asoslar, kishilik  
jamiyati, munshoat*

**ABSTRACT:**

*O'zbek tili Davlat tili maqomini olgach,  
hujjatlarning barchasi o'zbek tilida yuritilmoqda.  
Endi O'zbekistonda yashovchi va faoliyat  
ko'rsatuvchi fuqarolar, qanday kasb egasi  
bo'lishlaridan qat'i nazar, ishlab chiqarishning  
barcha sohalarida, albatta, o'zbek tilidagi  
hujjatlarga duch keladilar.*

Ushbu tizim sohaviy terminlarni talabalarning nofaol leksikasidan faol leksikasiga bosqichma-bosqich kiritib borishga qaratilgan bo'lib, ilk bosqichda talaba sohaviy terminlarni o'qituvchi yordamida o'zlashtirsa, ikkinchi bosqichda nutqda mustaqil qo'llay boshlaydi. Uchinchi bosqichda esa sohaviy terminlarni erkin qo'llay olish ko'nikma-malakalariga ega bo'ladi. Har bir bosqichda qo'llanadigan mashq va topshiriqlar turlari e'tiborga olingan. Ushbu bosqichlar bo'yicha talabalarga beriladigan mashq va topshiriqlar shartli ravishda bir necha turkumga ajratilgan va soddadan murakkabga qarab tuzilgani ko'rsatilgan.

X. Muhiddinova ta'lim bosqichlarida o'zbek tilining o'qitilishi hamda uzlusizligini ta'minlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish yuzasidan olib borgan tadqiqot ishida o'zbek tilining salmoqli o'rni va bugungi yosh avlodlarga to'liq va to'g'ri yetkazishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirishini bayon etgan.

B. Mengliyev va boshqa hammualliflar ishtirokida chop etilgan "O'zbek tilining iboralari o'quv lug'ati" qo'llanmasida o'zbek tilida ishlatiladigan iboralarning lug'at tartibi va ularning izohi haqida yoritgan.

N.Yuldasheva tadqiqot ishida o'zbek tilida ma'nodosh so'zlar va ularning izohlarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida lug'aviy sinonimlarni o'qitish metodikasi bo'yicha yoritgan bo'lib, unda o'zbek tilining so'z boyligi qanchalik keng ekanligini e'tirof etgan.

M.Aminov va boshqa hammualliflar ishtirokida yozilgan amaliy qo'llanmasida davlat tilida ish yuritish va o'zbek tilida davlat hujjatlarining yuritilishi, ularning yozilish qonun-qoidasi, tartibi haqida bergen. Bugungi kunda davlat hujjatlarining barchasi lotin yozuv, ozbek tilida bo'lishi yuzasidan o'rinli ma'lumotlar bayon etilgan.

Shuningdek, metodist D. Lutfullayeva "Mustaqillik davri rasmiy-idoraviy ish uslubi taraqqiyoti" deb nomlangan monografiyasida hozirda olib borilayotgan hujjatlar (ish qog'ozlar) bo'yicha nazariy ma'lumotlar berilgan.

Milliy istiqlol hayotimizning hech bir istisnosiz barcha sohalarida bo'lgani kabi ona tilimiz rivoji uchun ham keng yo'l ochdi. Mustaqil davlatimizning Asosiy qonuni - Konstitutsiyamizda, "Davlat tili haqida"gi qonun va boshqa rasmiy hujjatlarda ona tilimiz bo'lmish o'zbek tilining huquqiy maqomi va istiqboli aniq ko'rsatib berilgan. Mamlakatimizda o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi ona tilimizni yanada takomillashtirishga, unga bo'lgan e'tiborning yanada kuchayishiga imkoniyat yaratdi. O'zbek tilini yuksak darajaga ko'tarish, uni rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Milliy istiqlol hayotimizning hech bir istisnosiz barcha sohalarida bo'lgani kabi ona tilimiz rivoji uchun keng yo'l ochdi. Kishi o'z fikrini aniq va ravon ifodalashi uchun tildagi uslublardan xabardor bo'lishi, kundalik so'zlashuv tildan tashqari, rasmiy -ish yurutish tilini ham bilishi zarur. Ish yuritishning bevosita asosini hujjatlar tashkil qiladi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan bugungi kunda o'zbek tilida mukammal hujjatchilikning shakllanishi uchun butun imkoniyatlar ochildi. O'zbek tilidagi hujjatchilikini takomillashtirishda mavjud tajribalardan ko'z yumub bo'lmaydi. Kishi o'z fikrini aniq va ravon ifodalashi uchun tildagi uslublardan ham xabardor bo'lishi, kundalik so'zlashuv tilidan tashqari,

rasmiy – ish yuritish tilini ham bilishi, kerak. «Davlat tili haqida»gi qonunning 8-14-19-20-moddalarida ish yuritishning tilga aloqador jihatlari qoidalashtirilgan. Ish yuritishning bevosita asosini hujjatlar tashkil qiladi. Mazmunan, hajman va shaklan xilma-xil bo‘lgan hujjatlar turli mehnat jamoalarining, umuman, kishilik jamiyatining uzluksiz faoliyatini tartibga solib turadi.

O‘zbek tili Davlat tili maqomini olgach, hujjatlarning barchasi o‘zbek tilida yuritilmoxda. Endi O‘zbekistonda yashovchi va faoliyat ko‘rsatuvchi fuqarolar, qanday kasb egasi bo‘lishlaridan qat’i nazar, ishlab chiqarishning barcha sohalarida, albatta, o‘zbek tilidagi hujjatlarga duch keladilar. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonunining 19-moddasida: Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrlari, tamg‘alari ish qog‘ozlarining matnlari davlat tilida bo‘ladi’, deb belgilab qo‘yilganligini inobatga olsak, bu borada ko‘pgina amaliy ishlarni bajarishga to‘g‘ri keladi. Chunki sovet tuzumi davrida, birinchidan, hujjatchilik rus tilida olib borilganligi, ikkinchidan, ko‘pgina mahalliy millat bolalari o‘rta maktablarni o‘z ona tilida emas, balki rus tilida tugatganligi, qolaversa, mamlakatimizda turli millat vakillari istiqomat qilayotganligini hisobga oladigan bo‘lsak, ularning davlat tilida to‘laqonli ish yurita olishlari uchun alohida o‘quv qo‘llanma yaratilishiga katta ehtiyoj bor ekanligi ayon bo‘ldi.

Davlat tilida ish yuritishning asosiy vazifalaridan biri talabalarning ish yuritish bo‘yicha yozma nutq savodxonligini rivojlantirishdan iborat. Ushbu monografiyada berilgan rasmiy hujjatlarni tayyorlash haqidagi nazariy ma’lumotlar hamda hujjatlarning zaruriy qismlarini to‘gri qo‘yish tamoyillari va talabalarning bu boradagi amaliy ko‘nikmalarini takomillashtirishga qaratilgan. «Ish yuritish» degan atama ruscha «делопроизводство» so‘zidan tarjima qilinib, tilimizga olib kirilgan. Biroq bu atamaning muqobili sifatida «munshiy» (arabcha – yozuv ishlarni olib boruvchi) so‘ziga o‘zakdosh va ma’nodosh bo‘lgan hamda o‘tmishda bobolarimiz tilida ishlatilgan «munshaot» so‘zini tavsiya etish mumkin. Atoqli yozuvchimiz Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romanidagi quyidagi satrlarni eslang: "Anvar devonxona sahniga yetganda, ichkaridagi kattadan-kichik mirzo, munshiylar yangi boshliqlarini muborakbod qilgali o‘rinlaridan qo‘zg‘aldilar".

Bizningcha, talabalar ish yuritish hujjatlarni yozilish tartibini mukammal bilish muhim, negaki hozirda hujjatlarni berilgan tartib bilan bajarishda imlo qoidalalarini, so‘z va so‘z birikmalarni to`g‘ri qo‘llay olishda o‘zbek tilining sohada qo‘llanilish fanini o‘tilishida ko‘proq vaqt ajratish zarur.

N.Mahmudov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, N. Aminovlarning “O‘zbek tilida ish yuritish (munshaot)”, yana shu mualliflarning “Ish yuritish” amaliy qo‘llanmalari esa

o‘zbek tilida ish yuritishning me'yoriy asoslarini belgilab berishda g‘oyatda muhim qo‘llanma bo‘lib xizmat qilmoqda. Chunki mualliflarning ish yuritish borasida bergen yo‘l-yo‘riqlari xodimlarning faoliyatida metodik yordam beradi, hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalarini o‘rgatadi, ish qog‘ozlarining hamma joyda bir xil bo‘lishini ta‘minlaydi.[Ish yuritishning tarkibiy qismi bo‘lgan hujjatlarni ikki qismga bo‘lib o‘rganish to‘g‘ri bo‘ladi:

1. Rasmiy hujjatlar.
2. Shaxsiy hujjatlar.

Rasmiy hujjatlar “xizmat hujjatlari” deb ham yuritilib, ular doirasida idoralar va mahkamalar, korxonalar va tashkilotlar hamda muassasalar o‘rtasida olib boriladigan yozishmalar tushuniladi. “Ish yuritish” qo‘llanmasining mualliflari bu hujjatlarning tasnifi haqida quyidagilarni yozishadi: “Ma’muriy boshqaruv faoliyatida xizmat mavqeiga ko‘ra hujjatlar hozirgi kunda, asosan, quyidagicha tasniflanishi mumkin: tashkiliy hujjatlar, farmoyish hujjatlari, ma'lumot-axborot hujjatlari, xizmat yozishmalari”.

Alovida shaxs, jamoa tashkilotlari o‘rtasidagi aloqaning huquqiy jihatlarini qamrab oluvchi tashkiliy hujjatlarga guvohnoma, yo‘riqnomalar, nizom, qoida, ustav, shartnomalar singari hujjatlar; tashkilot yoki muassasa rahbarining ish faoliyatini doirasida amal qiladigan farmoyish hujjatlariga buyruq, ko‘rsatma, farmoyish kabi hujjatlar; ma'lumot-axborot hujjatlariga ariza, bayonnomalar, bildirishnomalar, vasiyatnomalar, dalolatnomalar, ishonchnomalar, ma'lumotnomalar, tavsifnomalar, tavsikanomalar, taklifnomalar, tarjimali hol, tushuntirish xati, e’lon, hisobot tarzidagi hujjatlar; alovida shaxs yoki tashkilotning faoliyatini qamrab oladigan xizmat yozishmalariga taklifnomalar, telegramma, telefonogramma, modeogramma va turli mazmundagi xatlar kiradi.

Ish yuritishning bevosita asosini hujjatlar tashkil qiladi. Mazmunan, hajman va shaklan xilma-xil bo‘lgan hujjatlar kattayu kichik mehnat jamoalarining, umuman kishilik jamiyatining uzlusiz faoliyatini tartibga solib turadi.

O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining boshqa hujjatlari davlat tilida qabul qilinib va e`lon qilinmoqda. Bu hujjatlarning tarjimalari boshqa tillarda ham e`lon qilinyapti. Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari davlat tilida olib borilmoqda. Muayyan millat vakillari zinch yashaydigan joylarda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari respublika davlat tilida hamda mazko‘r millat tilida ham qabul qilinishi tartibga solindi. Ma'lumki, yaqin vaqtlargacha hujjatlar asosan rus tilida rasmiylashtirilar edi. O‘zbek tilida esa ayrim hujjatlarga yuritilar, ular ham rus

tilidagi hujjatlar andozasiga asoslangan bo‘lib, milliylikdan yiroq edi. Endilikda respublikamizdagi barcha korxonalar, tashkilotlar, muassasalarda yuritiladigan hujjatlar o‘zbek tili qonun-qoidalariiga mos ravishda rasmiylashtirilmoqda. Oliy o‘quv yurtlarini bitirib chiqayotgan yosh mutaxassislar o‘zlari ishga boradigan mehnat jamoalarida ish qog‘ozlari, hujjatlarning mantiqiy to‘g‘ri yozilishi, yoki to‘g‘ri to‘ldirilishi, ishoraviy, imloviy, uslubiy xatolarsiz, davr talabiga javob beradigan tarzda rasmiylashtirishlari lozim. Buning uchun esa bitiruvchi talabalarimiz nafaqat hujjatlar bo‘yicha, balki yangi alifbo va imlo qoidalari bo‘yicha ham yetarlicha tushunchaga ega bo‘lishlari talab etiladi.

### ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O‘zbekiston, 2016.
2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir. –T.: O‘zbekiston, 2017.
4. Husanov N., Xo‘jaqulova R., Dilmurodova N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – T.: TMI, 2017. – 336 b.
5. Abdurahmonova M., Fattaxova D., Xalmuxamedova U., Inogamova N., Egamberdiyeva N. O‘zbek tili (o‘quv qo‘llanma). – T.: Mumtoz so‘z, 2018.
6. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish (amaliy qo‘llanma). – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2014.– 456 b.